

lider sifatidagi subyektiv imkoniyatlari va obyektiv cheklovlari o'rtasidagi tafovutni qisqartirish bo'yicha tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Markaziy Osiyo, ekologik yetakchilik, yashil diplomatiya, ijtimoiy to'siqlar, ekologik ong, mintaqaviy hamkorlik.

Kirish

So'nggi besh yil ichida O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo ustuvor yo'nalish sifatida qayta kashf etildi. 2017-yildan boshlab mintaqa davlatlari bilan munosabatlarda "yaxshi qo'shnichilik" tamoyili amalda mustahkamlanib, siyosiy ishonch muhiti shakllandi. Ayni shu jarayonda ekologik kun tartibi Yangi O'zbekiston diplomatiyasining ajralmas qismiga aylandi. Mamlakat rahbariyati BMT minbarida bir necha bor Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, mintaqaviy suv resurslaridan oqilona foydalanish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga chaqirib, O'zbekistonni Markaziy Osiyoning ekologik lideri sifatida ko'rsatishga intilmoqda. Ushbu tezisning maqsadi – Yangi O'zbekistonning mintaqaviy ekologik yetakchilik strategiyasining siyosiy asoslarini va ayni paytda uning oldida turgan ijtimoiy to'siqlarni tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot siyosiy imkoniyatlar va ijtimoiy cheklovlar o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ochib berishga qaratilgan.

1. Siyosiy imkoniyatlar: yangi ekologik diplomatiya va institutsional asoslar

Yangi O'zbekistonning ekologik yetakchilik da'vosi bir qator siyosiy omillarga tayanadi. Birinchidan, **mintaqaviy muhitning o'zgarishi**. 2016-yildan keyin qo'shnilar bilan munosabatlardagi sovuqchilik bartaraf etilib, davlat

rahbarlarining muntazam uchrashuvlari, maslahat kengashlari yo'lga qo'yildi. Bunday siyosiy ishonch ekologik muammolar kabi "past siyosat" (low politics) sohalarida hamkorlik uchun qulay zamin yaratdi. O'zbekiston tomoni aynan shu qulay vaziyatdan foydalanib, o'zini ekologik muammolarni hal etishda tashabbuskor davlat sifatida namoyon qilishga muvaffaq bo'ldi.

Ikkinchidan, "yashil diplomatiya"ning institutsionallashuvi. O'zbekiston Prezidentining 2019-yildagi BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish tashabbusi ilgari surildi. Shu asosda 2021-yilda Orolbo'yi xalqaro innovatsion markazi tashkil etildi. Shuningdek, mamlakat Markaziy Osiyo atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlatlararo komissiyalarda faol ishtirok etib, mintaqaviy ekologik dasturlarni moliyalashtirishga jalb qilingan xalqaro donorlar (Jahon banki, Yevropa Ittifoqi, BMT) bilan hamkorlikni kuchaytirdi. 2023-yilda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash milliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi. Bu esa ichki qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali mintaqaviy liderlik uchun normativ-huquqiy zamin yaratdi.

Uchinchidan, transchegaraviy ekologik loyihalardagi faollik. O'zbekiston Tojikiston va Qirg'iziston bilan suv-energetika masalalarida konstruktiv muloqot olib bormoqda; Qirg'iziston bilan Qorasuv daryosi havzasida qo'shma monitoring tizimi yo'lga qo'yildi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasiga (IFAS) raislik qilish davrida O'zbekiston tashkiliy islohotlar va loyiha portfelini kengaytirishga erishdi. "Yashil Markaziy Osiyo" tashabbusi doirasida Germaniya bilan hamkorlikda mintaqaviy iqlim strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Mazkur qadamlar

O'zbekistonning ekologik diplomatiya sohasida o'ziga xos "yumshoq kuch"ni shakllantirganini ko'rsatadi.


Umuman olganda, hozirgi siyosiy imkoniyatlar O'zbekistonga mintaqaning ekologik muammolari bo'yicha "agenda setter" (kun tartibini belgilovchi) rolini o'ynash uchun yetarli sharoit yaratmoqda.

2. Ijtimoiy to'siqlar: ong, ishonch va institutsional cheklovlar

Biroq siyosiy tashabbuslarning muvaffaqiyati bevosita ularning ijtimoiy qabul qilinishi va ichki jamiyatdagi ekologik madaniyat darajasiga bog'liq. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ekologik yetakchilik strategiyasining amalga oshishi oldida quyidagi jiddiy ijtimoiy to'siqlar mavjud.

Ekologik ong va ta'limning pastligi. O'zbekiston aholisining katta qismi, ayniqsa qishloq joylarda, ekologik muammolarni global yoki mintaqaviy miqyosda emas, balki kundalik turmush tarzining bir qismi sifatida qabul qiladi. 2022-yilda O'zbekiston Ekologik partiyasi ko'magida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 60 foizdan ortig'i iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishni "davlatning vazifasi" deb biladi, shaxsiy ishtirok zarurligini esa atigi 18 foiz tan olgan. Bunday passiv yondashuv "pastdan yuqoriga" ekologik harakatlarning shakllanishiga to'sqinlik qiladi va hukumatning xalqaro maydondagi ekologik tashabbuslarini ichki jamoatchilik tomonidan yetarlicha qo'llab-quvvatlanmasligiga olib keladi. Aholining keng qatlami uchun ekologik yetakchilik g'oyasi mavhum va ularning bevosita manfaatlaridan yiroq bo'lib qolmoqda.

Transchegaraviy jamoalardagi ishonchsizlik va tarixiy ziddiyatlar. Markaziy Osiyoda suv va yer resurslari taqsimoti bo'yicha o'nlab



7. UNECE. *Environmental Performance Review of Uzbekistan: Third Review*. – Geneva: United Nations, 2024.